



BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLİYAVIY HISOBOTLARNI YURITISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

MODERN APPROACHES TO IMPROVING FINANCIAL REPORTING PRACTICES IN BUDGETARY ORGANIZATIONS

¹**Maxamadaliyeva
MahliyoXon
Maxamadmurod qizi**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti.
E-mail: maxamadaliyeva.m@mail.ru*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni yuritish masalasi bugungi kunda alohida ahamiyatga ega va dolzarb mavzu hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda O'zbekistondagi budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobot yuritish tizimining hozirgi holati tahlil qilindi. Tadqiqot maqsadi davlat sektorida moliyaviy hisobotlar sifatini yaxshilash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat bo'lib, mazkur jarayonda 25 ta budjet tashkilotining faoliyati o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, respublikamizda tadqiqotda qamrab olingan budjet tashkilotlarining atigi 32 foizi to'liq raqamlashtirilgan hisobdorlik tizimidan foydalanmoqda. Xorijiy tajribalar bilan taqqoslash esa davlat sektorida jiddiy islohotlar amalga oshirish zaruratini yaqqol namoyon qildi. Tadqiqot xulosalariga ko'ra, kompleks modernizatsiya dasturi amalga oshirilsa, hisobotlar sifati va tezligi sezilarli yaxshilanadi.

Eng. - The issue of financial reporting in budgetary organizations is a particularly important and pressing issue today. This study provides a deep analysis of the current state of the financial reporting system in budgetary organizations in Uzbekistan. The aim of the study was to improve the quality of financial reporting in the public sector and identify opportunities for using modern technologies. The study examined the activities of 25 budget organizations and interviewed 180 specialists. The results showed that only 32 percent of budget organizations covered by the study in our republic are using a fully digitalized accountability system. Comparison with foreign experience clearly demonstrated the need for serious reforms in the public sector. According to the study's findings, if a comprehensive modernization program is implemented, the quality and speed of reporting will improve significantly.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *budjet nazorati, budjet tashkilotlari, davlat moliyasi, hisobdorlik, moliyaviy hisobotlar, moliyaviy tahlil, raqamlashtirish, xalqaro standartlar, shaffoflik.*

❖ *budget control, budgetary organizations, public finance, accountability, financial reporting, financial analysis, digitalization, international standards, transparency.*

Kirish.

Respublikamizda so'nggi yillarda budjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatiga bo'lgan talablar tubdan o'zgarmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan belgilangan vazifalar doirasida davlat moliyasini samarali

boshqarish va har bir so'm uchun javobgarlik tuyg'usini shakllantirish birinchi o'ringa chiqdi. Bu jarayon moliyaviy hisobotlarni yuritish tizimiga ham yangicha yondashuv talab qilmoqda.

Xususan, 2024 yilda tasdiqlangan "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizom" budjet tashkilotlari uchun huquqiy asoslarni mustahkamlab, ularning hisobot yuritish tartibiga aniqlik kiritdi [1]. Ushbu normativ hujjat nafaqat hisob-kitob intizomini mustahkamlash, balki hisobdorlik va shaffoflikni oshirishga ham xizmat qilmoqda. Biroq, amaliyotda ko'plab budjet tashkilotlarida hanuzgacha eskicha yondashuvlar saqlanib qolgan bo'lib, moliyaviy hisobotlarning kechiktirib taqdim etilishi, ayrim hollarda aniqlikning yetishmasligi va moliyaviy ma'lumotlarning real vaqt rejimida shakllantirilmashligi kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan milliy Budjet hisobi standartlari (BHS) ishlab chiqilgan bo'lib, ularning mazmuni va tuzilmasi xalqaro standartlarga, xususan, Davlat sektori buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga (DSBHXS, IPSAS) muvofiqlashtirilmoqda. Mazkur standartlar milliy sharoitni inobatga olgan holda, bosqichma-bosqich DSBHXS tamoyillariga yaqinlashtirilmoqda. Ya'ni, O'zbekiston xalqaro standartlarni to'liq qabul qilish emas, balki ularning asosiy metodologik yondashuvlarini milliy tizimga moslashtirish yo'lini tanlagan.

Shunday ekan, budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobot yuritish amaliyotini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va BHS orqali DSBHXS talablariga yaqinlashish yo'llarini belgilash muhim ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qolmoqda. Bu masala nafaqat buxgalterlar, balki davlat boshqaruvi, nazorat organlari va strategik qaror qabul qiluvchi institutlar uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda davlat sektorida moliyaviy hisob va hisobot tizimlarini standartlashtirish bo'yicha global harakatlar faollashdi. Xususan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (2021) bergan ma'lumotlarga ko'ra, Birlashgan

Millatlar Tashkiloti (BMT)ni o'z ichiga olgan 80 dan ortiq xalqaro tashkilotlar IPSAS (Xalqaro Davlat Sektorining Buxgalteriya Standartlari)ni to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita joriy etgan. Bu yondashuv davlat sektorida hisobdorlikni oshirish va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

IPSASning amaliyotga joriy etilishi keng geografiyani qamrab olgan: Yevropa (Christaens va boshq., 2015; Argento va boshq., 2018; Jorge va boshq., 2019) [3, 4, 5], Afrika (Whitefield & Savvas, 2016; Olaoye & Talabi, 2018) [6,7] hamda Osiyo (Abdulkarim va boshq., 2023; Alshujairi, 2014) [8, 9] mintaqalarida bu standart faol qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, ayrim davlatlar IPSAS o'rniga o'zlarining milliy buxgalteriya standartlarini ishlab chiqishga qaror qilgan – bunga Indoneziya misol bo'la oladi.

Biroq, IPSASni joriy etish jarayonida turli qiyinchiliklar mavjud. Jumladan, bu standartlar tizimining afzalliklari har tomonlama to'liq anglanmaganligi sababli qarshiliklar yuzaga kelmoqda (Bekiaris & Paraponti, 2023) [10]. Shuningdek, akkrual asosdagi buxgalteriya hisobi bo'yicha yetarli bilim va amaliy ko'nikmalar yetishmayapti (Fahmid va boshq., 2020) [11]. Amalda esa, bu turdagi hisobot ma'lumotlarining boshqaruv qarorlarini qabul qilishda samarali qo'llanilishiga oid ishonchli dalillar yetarli emas.

Bu masalani kengroq tahlil qilgan ilmiy tadqiqotlar IPSASni joriy etishga turtki bo'lgan omillarni (Schmidhuber va boshq., 2022) [12], korrupsiya bilan bog'liq muammolarni (Tawiah, 2023; Hamed-Sidhom va boshq., 2022) [13, 14] hamda boshqa salbiy yoki ijobiy oqibatlarni ko'rib chiqadi. Shu tariqa, IPSASning jahon miqyosida tatbiq etilishi nafaqat moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, balki davlat sektorida ishonchni oshirish uchun ham muhim vositaga aylanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Empirik ma'lumotlar to'plash: 2024-yil mart oyidan may oyigacha bo'lgan davrda respublikaning turli hududlarida joylashgan 25 ta budjet tashkilotlarida (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalariga oid) tadqiqot o'tkazildi va shu asosda zaruriy ma'lumotlar shakllantirildi.

Statistik ma'lumotlar tahlili: Rasmiy statistik ma'lumotlar asosida 2022-2024 yillardagi budjet tashkilotlari hisobotlarining sifat ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi. Jumladan, SPSS 26.0 dasturi yordamida korrelyatsion tahlil amalga oshirildi.

Xorijiy tajribani o'rganish: OECD davlatlari, xususan, Finlandiya, Estoniya, Kanada va Avstraliya tajribasi batafsil

o'rganilib, ularning rasmiy veb-saytlari, hisobotlari va ilmiy nashrlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2024 yilning mart-may oylarida o'tkazilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni yuritishda bir nechta tizimli muammolar mavjud. Ulardan asosiylari quyidagilardan iborat: Texnik muammolar, tashkiliy muammolar, psixologik to'siqlar.

Tadqiqot doirasida 25 ta budjet tashkilotining moliyaviy hisob yuritish darajasi 3 toifaga ajratilib tahlil qilindi: to'liq raqamli, qisman raqamli va an'anaviy qog'oz shakli. Quyidagi jadvalda ularning taqsimoti ko'rsatilgan:

1-jadval

Budjet tashkilotlarida moliyaviy hisob yuritishning raqamlashtirilganlik darajasi tahlili

Raqamlashtirilganlik darajasi	Tashkilotlar soni	Jami tashkilotlar sonidagi ulushi	Asosiy xususiyatlari
Yuqori daraja	8	32%	To'liq avtomatlashtirilgan, onlayn hisobotlar
O'rtacha daraja	11	44%	Qisman raqamli, hali ham qog'oz ishlatiladi
Past daraja	6	24%	Asosan qog'oz, kompyuter faqat bosib chiqarish uchun

Manba: Muallif tomonidan 2024-yilning mart-may oylarida o'tkazilgan tadqiqotlar asosida shakllantirilgan.

Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, atigi 32 foiz tashkilotlar to'liq raqamlashtirilgan tizimda ishlaydi. Qolganlari esa qisman yoki umuman qog'ozga asoslangan tizimdan voz kechmagan. Bu holat hisobot sifati va tezligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, tadqiqot doirasida suhbat o'tkazilgan 180 nafar xodimning

texnologiyalarga nisbatan munosabati va real ko'nikmalari yosh guruhlari bo'yicha tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli tizimlarni tez o'zlashtirayotganlar asosan yosh mutaxassislar bo'lib, tajribali, biroq yoshi katta xodimlarda raqamli texnologiyalarga nisbatan qarshilik kuchliroq.

2-jadval

Budjet tashkiloti xodimlarining yosh guruhlari bo'yicha raqamli texnologiyalarga moslashuvi tahlili

Yosh guruhi	Adaptatsiya darajasi	Asosiy muammolar
25-35 yosh	85%	Formal ta'lim yetishmasligi
36-45 yosh	60%	Ish hajmi, vaqt tanqisligi
45+ yosh	30%	Texnologiyadan qo'rqish, ehtiyotkorlik

Manba: Muallif tomonidan 2024-yilning mart-may oylarida o'tkazilgan tadqiqotlar asosida shakllantirilgan.

Yuqoridagi tahliliy jadval ma'lumotlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, raqamlashtirish jarayonida texnik ta'minotdan tashqari, inson kapitali bilan ishlash, ya'ni malaka oshirish va psixologik moslashuv bo'yicha kompleks choralarni qo'llash zarur. Shu tarzda, xodimlarning texnologik yangiliklarga nisbatan moslashuv darajasi tashkilotlarda raqamli tizimlarning qanday joriy etilishini bevosita belgilab

bermoqda. Ammo bu jarayon faqat inson omili bilan cheklanmaydi — raqamlashtirish amalda moliyaviy hisobotlarning sifati va ularni tayyorlash tezligiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani ham alohida tahlilni talab etadi.

Quyida ushbu jihatlar empirik ma'lumotlar asosida solishtirma shaklda ko'rib chiqiladi:

3-jadval

Budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobot sifati va hisobotlar tayyorlanish tezligiga raqamlashtirish ta'sirining tahlili

Jarayon	An'anaviy usul	Qisman raqamli	To'liq raqamli
Ma'lumot to'plash	3-4 kun	2 kun	4-6 soat
Hisob-kitoblar	2-3 kun	1 kun	2-3 soat
Hisobot tuzish	2-3 kun	1-2 kun	1-2 soat
Tekshirish va tuzatish	1-2 kun	1 kun	30 minut
Jami vaqt	8-12 kun	5-6 kun	1 kun

Manba: SPSS 26.0 asosida olingan empirik tahlillar.

Empirik tahlil natijasida olingan ma'lumotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, raqamlashtirish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa ma'lumotlar bilan ishlash shunchalik samarali bo'ladi. O'rganilgan va ma'lumotlari tahlil etilgan bir nechta budjet tashkilotlarida to'liq raqamlashtirilgan asosda hisob yuritilganda, xodimlar oylik hisobotni bir kunda tayyorlashmoqda. Qolgan ayrim tashkilotlarda esa bu jarayon 1 haftadan uzoq muddatga cho'zilishi ham kuzatiladi. Moliyaviy

hisobotlarning raqamlashtirilishi nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki budjet intizomini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Tadqiqot doirasida o'rganilgan davlatlar tajribasi (Finlandiya, Estoniya, Kanada, Avstraliya) O'zbekistondagi mavjud holat bilan solishtirildi. Quyidagi jadvalda asosiy ko'rsatkichlar raqamli tizimlar orqali qamrab olinganlik darajasi, tezlik, xatolar va shaffoflik nuqtai nazaridan berilgan.

4-jadval

Turli davlatlarda raqamlashtirish darajasi va hisobot tizimi samaradorligi tahlili

Ko'rsatkich	O'zbekiston	Finlandiya	Estoniya	Kanada	Avstraliya
Raqamlashtirish	32%	98%	99%	94%	91%
Hisobot tezligi	8 kun	4 soat	2 soat	6 soat	1 kun
Xatolar darajasi	15-20%	2%	1%	3%	4%
Shaffoflik	5.2/10	9.1/10	9.5/10	8.8/10	8.5/10

Manbalar: OECD (2024) [17], World Bank (2024) [15], IMF Country Reports (2025) [16]

Xalqaro tajriba bilan o'tkazilgan taqqoslashlar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish darajasi yuqori bo'lgan

davlatlarda moliyaviy hisobotlarning sifati, tezligi va shaffofligi sezilarli darajada yaxshilangan. Ayniqsa, davlat moliyasining

boshqaruv tizimi to'liq integratsiyalashgan platformalar orqali yuritilayotgani bu jarayonni yanada samarali qilgan.

Masalan, Nordic modeli, ya'ni Finlandiya tajribasi, bu borada alohida e'tiborga loyiq. Bu mamlakatda 2019-yilda joriy etilgan "Kieku" platformasi orqali barcha davlat tashkilotlari yagona axborot tizimiga ulangan. Natijada, hisobotlar sifati 97 foizga yetgan bo'lib, bu O'zbekistondagi o'rtacha ko'rsatkich — 73 foizga nisbatan ancha yuqori. Shuningdek, Boltiq modeli – Estoniya tajribasi esa elektron boshqaruv tizimining yuqori darajadagi namunasi sifatida e'tirof etiladi. Mamlakatdagi "e-Residency" dasturi orqali barcha moliyaviy tranzaksiyalar blokcheyn texnologiyasi asosida nazorat qilinadi. Bu tizim moliyaviy soxtalashtirish xavfini deyarli nolga tushirgan.

Raqamlashtirish faqatgina hisobot shakllarini avtomatlashtirish emas, balki zamonaviy texnologik yechimlarni joriy qilish orqali moliyaviy boshqaruvning yangi darajasiga chiqish imkonini beradi. Masalan, Kanadada "Phoenix" tizimi sun'iy intellekt asosida ishlaydi va u hisob-kitoblardagi anomaliyalarni oldindan aniqlab, foydalanuvchini ogohlantiradi. Bu esa inson xatolarining oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, blokcheyn texnologiyasi Estoniya tajribasida bo'lgani kabi, nafaqat xavfsizlik, balki moliyaviy axborotlarning o'zgartirilmasligini kafolatlash vositasi sifatida ham xizmat qilmoqda. Har bir moliyaviy operatsiya zanjirli tizimda doimiy tarzda saqlanadi va bu hisobotlarning ishonchligini oshiradi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot davomida to'plagan kuzatuvlarimiz asosida bir necha muhim xulosalarga keldik:

1. O'zbekiston budjet tashkilotlarida moliyaviy hisob yuritish tizimining joriy holati raqamlashtirish yo'lida muayyan siljishlarga ega bo'lsa-da, hali ham ko'plab tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Texnik,

tashkiliy va inson omiliga oid cheklovlar, ayniqsa yoshi katta mutaxassislar orasida raqamli texnologiyalarga nisbatan qarshilik, samarali raqamli transformatsiyani sekinlashtirmoqda. Raqamlashtirish nafaqat infratuzilmani yangilash, balki xodimlar ongini va ko'nikmalarini ham yangilashni talab qiladi.

2. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda to'liq raqamlashtirilgan tizimlar an'anaviy usullarga nisbatan 5-7 barobar samaraliroqdir. Hisobotlar tayyorlash tezligining ortishi, xatoliklar sonining keskin kamayishi va shaffoflikning oshishi raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Shuningdek, yuqori raqamlashtirilgan tashkilotlarda budjet intizomi va moliyaviy nazorat ancha kuchliroq shakllangan.

3. Xalqaro tajribalar, xususan Finlandiya, Estoniya va Kanada tajribalari asosida aniqlanishicha, davlat moliyasida raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalar (AI, blokcheyn, bulutli platformalar)ni joriy etish orqali nafaqat samaradorlik, balki ishonchlilik va korrupsiyaga qarshi kurashish darajasi ham sezilarli oshadi. O'zbekiston sharoitida esa IPSAS tamoyillariga mos milliy yondashuvlar orqali bosqichma-bosqich transformatsiyalash — eng maqbul yo'l sifatida namoyon bo'lmoqda.

Budjet tashkilotlaridagi moliyaviy hisobot yuritilishi amaliyoti bilan bog'liq aniqlangan muammolarni bartaraf etishda quyidagilar samara berishi mumkin:

1. Kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks dastur. Budjet tashkilotlarida zamonaviy hisob yuritish tizimlarining muvaffaqiyati xodimlarning bilim va ko'nikmalariga bevosita bog'liq. Shu sababli, har bir tuman markazida "Raqamli hisobdorlik maktabi" tashkil etilishi taklif etiladi. Bu markazlarda amaliy mashg'ulotlar orqali mutaxassislar o'z ish joyidan uzilmagan holda raqamli buxgalteriyaga oid amaliy ko'nikmalarni egallashlari mumkin.

Shuningdek, "mentor-shogird" modeli joriy etilishi – tajribali hisobchilar va yosh

texnologik mutaxassislar o'rtasida o'zaro bilim almashinuvi muhitini shakllantiradi.

2. Mahalliy texnologik yechimlarni ishlab chiqish va moslashtirish. Xorijiy dasturlardan to'liq foydalanish murakkabligi inobatga olinib, o'zbek tilida, sodda va intuitiv interfeysga ega bo'lgan milliy buxgalteriya platformasini yaratish muhim. Ushbu tizimda real vaqt rejimida ma'lumotlarni tahlil qilish, avtomatik ogohlantirishlar, moliyaviy nazorat vositalari kabi funksiyalar mavjud bo'lishi kerak.

Rahbarlar uchun esa mobil ilovalar orqali istalgan vaqtda hisobot holatini ko'rish imkoniyati yaratilishi shaffoflikni sezilarli oshiradi.

3. Rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish.

Raqamli tizimlarni muvaffaqiyatli joriy etgan tashkilot va xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Misol uchun, "Eng yaxshi raqamli hisobdorlik tashkiloti" tanlovi va "Yilning innovatsion buxgalteri" kabi mukofotlar tizimi bu sohada ijobiy raqobat muhitini shakllantiradi.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi orqali moliyaviy hisobotlarni tayyorlash vaqti sezilarli qisqaradi, xatoliklar kamayadi, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi oshadi. Shuningdek, moliyaviy hisobotlar sifati va hisobdorlik darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2024-yil 4-noyabr, 3567-son "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil 10-noyabr, 61-son "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi buyrug'i. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

3. Christiaens, J., Vanhee, C., Manes-Rossi, F., Aversano, N., & Van Cauwenberge, P. (2015). *The effect of IPSAS on reforming governmental financial reporting: An international comparison*. *International Review of Administrative Sciences*, 81(1), 158-177.

4. Argento, D., Peda, P., & Grossi, G. (2018). *The enabling role of institutional entrepreneurs in the adoption of IPSAS within a transitional economy: The case of Estonia*. *Public Administration and Development*, 38(1), 39-49.

5. Jorge, S., Brusca, I., & Nogueira, S. P. (2019). *Translating IPSAS into national standards: An illustrative comparison between Spain and Portugal*. *Journal of Comparative Policy Analysis: Research and Practice*, 21(5), 445-462.

6. Whitefield, A. A., & Savvas, P. (2016). *The Adoption and Implementation of the International Public Sector Accounting Standards: The challenges faced by the United Nation in producing UN-IPSAS compliant financial reports in Kenya*. *International Journal of Finance and Accounting*, 1(1), 75-91.

7. Olaoye, F. O., & Talabi, A. O. (2018). *International Public Sector Accounting Standards (IPSAS) and credibility of financial reporting in Nigeria public sector: An improvement or a ruse*. *Research Journal of Finance and Accounting*, 9(14), 68-74.

8. Abdulkarim, M. E., Umlai, M. I., & Al-Saudi, L. F. (2023). *Culture, language, and accounting reform: A new perspective on IPSAS implementation*. *Journal of Accounting & Organizational Change*, 19(2), 376-400.

9. Alshujairi, M. H. A. (2014). *Government accounting system reform and the adoption of IPSAS in Iraq*. *Research Journal of Finance and Accounting*, 5(24), 1-20.

10. Bekiaris, M., & Paraponti, T. (2023). *Examining the status of IPSAS adoption at the country level: An analysis of the OECD member states*. *Journal of Accounting & Organizational Change*, 19(2), 296–325.
11. Fahmid, I. M., Harun, H., Graham, P., Carter, D., Suhab, S., An, Y., Zheng, X., & Fahmid, M. M. (2020). *New development: IPSAS adoption, from G20 countries to village governments in developing countries*. *Public Money & Management*, 40(2), 160–163.
12. Schmidhuber, L., Hilgers, D., & Hofmann, S. (2022). *International Public Sector Accounting Standards (IPSASs): A systematic literature review and future research agenda*. *Financial Accountability & Management*, 38(1), 119–142.
13. Tawiah, V. (2023). *The impact of IPSAS adoption on corruption in developing countries*. *Financial Accountability & Management*, 39(1), 103–124.
14. Hamed-Sidhom, M., Hkiri, Y., & Boussaidi, A. (2022). *Does IPSAS adoption reduce corruption's level? New evidence from ODA beneficiary countries*. *Journal of Financial Crime*, 29(1), 185–201.
15. Jahon banki. "Uzbekistan: Public Financial Management System Assessment Report". Washington: World Bank Publications, 2024. 127 pages.
16. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi. "Republic of Uzbekistan: 2025 Article IV Consultation Staff Report". Washington: IMF Country Reports, 2025. 85 pages.
17. OECD. "Public Financial Management and Its Emerging Architecture in Central Asia". Paris: OECD Publishing, 2024. 234 pages.